



## QADIMGI XORAZM TARIXIGA OID ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

Ochilova Jasmina

Ergasheva Nargiza

Shahrisabz davlat pedogogikasi ijtimoiy

fanlar fakulteti tarix yo'nalishi

1-kurs 2-24-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada Qadimgi Xorazm davlati Ahamoniylardan ajralib chiqishi va hunarmandchilik va boshqa sohalar rivojlanishi to'g'risida malumotlar. Qadimgi Xorazmda qal'alar haqida tadqiqotlar ishlari topilgan manbalar yoritib berish.

**Kalit so'zlari:** Aleksandr, Jonbosqal'a, So'g'diyona, Afrig'iylar, "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"

**Аннотция:** В статье содержатся об отделении древнего хорезмийского государства от Ахеменидсов и развитии ремесел и других отраслей промышленности.

**Ключевые слова:** Александру, Жанбоскале, Согдийцам, Африканцам, Древним народам.

**Abstract:** In the article, information the separation of the ancient khorezm state from the Achaemenids and the development of handicrafts and other industries.



**Key words:** Alexander, jonboskala, sogdian, afrikhiy, monuments from ancient peoples.

**Kirish:** Milodiy I asrda davlatda yangi sulolaning hukmronligi boshlanadi. I-III asr boshlariga oid mis tangalardagi yozuvlarda bu sulolaning ikki vakili - Artav va Artamush ismlari aniqlangan. Afrig'iyalar sulolasi taxtni qo'lga kiritishi haqida Beruniy ma'lumot keltirgan. Mazkur voqea 304-305-yillarga to'g'ri keladi, deb hisoblanib kelingan. Biroq bu yil sanasiga nisbatan numizmatika (tangashunoslik) materiallari asosida yangi yondashuv vujudga keldi [E.V. Rtveladze] Qadimgi xorazm davlati sharqiy Xorazm vohasini o'rab olgan dashtlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador qabilalari istiqomat qilishgan. Ular Sharqiy Kaspiybo'yi va Orolbo'yi oralig'idagi Quyi Amudaryoning Kaspiy dengiziga quyilgan O'zboy o'zani sohillarida va Quyi Sirdaryoning eski o'zanlari (Inkardaryo, Quvandaryo) atroflarida joylashgan. Chorvadorlar bu hududlarda juda erta paydo bo'lishgan. Adabiyotlarda mil. avv. IX-VIII asrlarga oid chorvador sardorlari va oq-soqollari dafn etilgan Tagisken maqbaralari «Avesto»da tilga olingan «tura» turlar madaniyati bilan qiyoslanib, Inkardaryo havzasida Qang'xa viloyatining markazi joylashgan, degan fikr ilgari surildi. Mil. avv. VIII-VII asrlar chegarasida Quyi Sirdaryo hududidan kelib chiqqan ilk saklar quyi Amudaryoning so'l sohil yerlariga joylashadi, shuningdek, ularga qo'shni dashtlarda massagetlar yoyilgan. Keyingi davrlarda Sharqiy Orolbo'yi hududlarida turli sak qabilalari: apasiak, sakavarka, augasiy va toxarlar yashashgan. Ular va Xorazm vohasi aholi o'rtasida iqtisodiy-madaniy aloqalar rivojlangan. Xorazm tarixida Qang', Kanguy madaniyati davri hukm surgan degan qarashlar eskirib, ilmiy adabiyotlarda rad etildi. Antik davri Xorazm davlatining boshqaruv shakli podsho hokimiyatidan iborat edi. Arrianning asarida Aleksandr huzuriga yetib kelgan Farasman «xorazmliklarning podshosi» deb atalgan. Farasman kelib chiqqan sulolaning nomi fanda ma'lum emas. Mil. avv. IV-III asrlarga oid Xorazm tangalari topilmagan. Bu davrda



Xorazm davlatining hududiy chegaralari va ta'sir doirasi Janubiy Orolbo'yi, O'rta Amudaryo va Sharqiy Kaspiybo'yi yerlari bilan belgilangan. Ehtimol, bu davrda O'zboy orqali Kaspiy dengiziga boradigan suv yo'li xorazmliklar nazoratida bo'lgan. Mil. avv. II asr oxirlaridan Xorazm podsholari Yunon-Baqtriya podshosi Evkratidning tangalariga o'xshatib, o'z kumush tangalarini zarb eta boshlashgan. Bu tangalarda podsho-chavandoz tasvirlangan. Tadqiqotchilarning yozishicha, u ko'chmanchi qabilalarning ramzi bo'lib, mil. avv. II asrda Xorazmga kirib kelgan Yuechji - toxar sar- dorlarining hukmronligini aks ettiradi. Ammo mazkur hukmdorlar- ning ismlari noma'lum. [1] 238.239,b

**Adabiyotlar tahlili.** Mil.avv. V-IV asrlarda oromiy alifbosi harflari tizimiga asoslangan Bu yozuv 20 ta harfdan iborat bo'lib, sopol sirtiga, charmga va yog'och taxtachalariga bitilgan. Hujjatlarda davlat xazinasiga soliq majburiyati sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini topshirgan aholi vakillarining ro'yxati, ibodatxonalar xo'jaligidan chorva, un, hunarmandchilik buyumlari alohida shaxslarga berilganligi haqidagi ma'lumotlar, xonadonlar ro'yxati va shaxslar ismlari qayd etilgan hamda «Avesto»dan ma'lum xudolar nomlari, Amudaryoning homiysi, ilohi «Vaxshu» va boshqa ma'lumotlar keltirilgan.[2] 245b A.S. Sagdullayev, B.J. Eshov, A.A. Odilov, A.B. Xoliqulov, A.M. Xidirov, O'M. Mavlonov, O.P. Kobzeva o'zbekiston tarixi I kitob ( Toshkent "nif msh" 2024 kitoblarida keltirilgan. Qasrdagi saroy devorlari shohlar, lashkarlar, sozandalar, shuningdek, hayvonlar va qushlar tasviri bilan bezatilgan. 20 dan ortiq bo'yalgan loy haykallar zallardan biridagi tokchalarda devor bo'ylab o'rnatilgan. 133 Qo'yqirilganqal'a. Xorazm aholisi So'g'diyona, Marg'iyona, Baqtriya va dasht ko'chmanchilari bilan yaqindan savdo mu- nosabatlarini o'rnatgan. Bu o'lkadan muhim karvon yo'llari o'tgan. Madamin Eshmurodov xorazm manbalarida davlatchilik tarixi Xorazm-2024 Xorazm Ma'mun akademiyasi tayanch doktoranti U.Bekimmetovning 1 jildlik "Xorazm va xorazmliklar" kitobi chop qilindi. "Xorazm va Xorazmliklar" turkumidagi birinchi kitobda Xorazm toponimi, uning kelib chiqishi bilan bog'liq olimlarning fikr mulohazalari, taxminlari va



xalq orasida tarqalgan afsona va rivoyatlar, ilmiy faktlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, Xorazmning tabiiy geografik joylashuvi, qadimiy o'lka tarixining turli davrlaridagi voqealar, jarayonlar yoritib berilgan. Умид бекмуҳаммад хоразм ва хоразмликлар 2022. Xorazm.72.23b O'rta Osiyoning janubida joylashgan ondab yangi tipdagi voha davlatlar songgi broniy va ilk temir davrida (ITD 1) ba'zan yirik siyosiy birlinmalar podsholiklarga birlashar edilar. O'rta Osiya janubida bular Bactriya, Margiyona va "Katta Xorazm" edi. . Mazkur omillardan biri Mesopotomiyaning urishko, davlatlari Midiya, Ossuriya, Mitaniya tomonidan kelingan xavf edi. Yozma manbalar, eng avvalo "Avesto" va grek-rim tarixchilarining guvohlik berishiga karaganda ushbu siyosiy voqealar eramizga qadar bolgan VII-VI asrlarda, Eron va Ahamoniylar sulolasining boshchiligidagi imperiya tuzilgunga qadar bo'lib o'tgan. O'zbekiston davlatchilik tarixi sharq nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriyati toshkent-2001(8b)

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotlar qadimgi Xorazmning qadimgi davrlarini o'rganish uchun arxeologik qazishmalar va topilmalarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu metod Xorazmning qadimiy yodgorliklari, shaharlar, ibodatxona va boshqalar. Bu metod orqali, masalan, Urganch, Xiva, Shahrisabz kabi joylardagi qadimiy qurilishlar o'rganiladi.

**Dolzarbli.** Xorazmning Etil (Volga) bo'yidan Markaziy Osiyo orqali Mo'g'uliston va Xitoyga hamda Eronga boriladigan savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi uning iqtisodiy va ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etgan. 712 yili Xorazmni arablar bosib olgan. Xalifalikning Xurosondagi noibi Qutayba ibn Muslim xorazmliklarning tarixiy adabiyoti va madaniy merosini saqlab kelgan olimlarni qirg'in qilgan va quvib yuborgan. Shu sababli arablar istilosigacha bo'lgan davrdagi yozma tarixiy manbalar deyarli uchramaydi.

**1-guruh Xorijiy manbalar.** Xorazm davlati haqdagi ilk ma'lumotlar "Avesto", birinchi Doroning Bihistun tosh bitiklari, qadimgi yunon mualliflari, arab geograflarining



asarlarida uchraydi. “Avesto”ning “Yasht” qismida Xorazm “Ming irmoqli daryo”, “Ko’llar va o’tloqdarga boy o’lka” sifatida madh etiladi.

**2-guruh Qadimgi Rim va o’rta osiyo tarixchilar asarida.** Arrianning asarida Aleksandr huzuriga yetib kelgan Farasman «xorazmliklarning podshosi» deb atalgan. Farasman kelib chiqqan sulolaning nomi fanda ma'lum emas. Mil. avv. IV-III asrlarga oid Xorazm tangalari topilmagan. Bu davrda Xorazm davlatining hududiy chegaralari va ta'sir doirasi Janubiy Orolbo'yi, O'rta Amudaryo va Sharqiy Kaspiybo'yi yerlari bilan belgilangan. Ehtimol, bu davrda O'zboy orqali Kaspiy dengiziga boradigan suv yo'li xorazmliklar nazoratida bo'lgan. Mil. avv. II asr oxirlaridan Xorazm podsholari Yunon-Baqtriya podshosi Evkratidning tangalariga o'xshatib, o'z kumush tangalarini zarb eta boshlashgan. Bu tangalarda podsho-chavandoz tasvirlangan. Tadqiqotchilarning yozishicha, u ko'chmanchi qabilalarning ramzi bo'lib, mil. avv. II asrda Xorazmga kirib kelgan Yuechji - toxar sardorlarining hukmronligini aks ettiradi. Ammo mazkur hukmdorlar- ning ismlari noma'lum. Milodiy I asrda davlatda yangi sulolaning hukmronligi boshlanadi. I-III asr boshlariga oid mis tangalardagi yozuvlarda bu sulolaning ikki vakili - Artav va Artamush ismlari aniqlangan. Afrig'iylar sulolasi taxtni qo'lga kiritishi haqida Beruniy ma'lumot keltirgan. Xorazm vohasi antik davri tarixini o'rganishda Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari ulkan hissa qo'shishgan (S.P. Tolstov, A.V. Andrianov, M.G. Vorobyova, Y.A. Rapoport, B.I. Vaynberg). Ularning izlanishlari va kashfiyotlari tufayli, Xorazm sivilizatsiyasi, qadimiy shaharlari, moddiy va ma'naviy madaniyat obidalari butun jahonga mashhur bo'ldi. XX asrning 90-yillari va XXI asr boshlarida o'zbekistonlik qadimshunoslarning Xorazmdagi yangi arxeologik tadqiqotlarini qayd etib o'tish lozim (M. Mambetullayev, V.N. Yagodin, G. Xodjaniyazov, Q. Sobirov, S. Baratov, A. Abdirimov).

**3-guruh Fors manbalari.** Xorazm davlati haqida fors manbalarida muhim ma'lumotlar mavjud. Xorazmshohlar davlatining tarixini yoritgan fors manbalari orasida asosan Tarixi Bayhaqi, Shahname, Tuzuk-i Timuri, va boshqa fors tilida yozilgan asarlar



bor. Quyida ba'zi muhim fors manbalari va ularning Xorazm haqidagi ma'lumotlarini keltiraman. Forsning ulkan epik asari bo'lgan Shahnameda ham Xorazm haqida ma'lumotlar uchraydi. Asarda Xorazmning qadimiy tarixiga, uning rahbarlari va davlatchilik tuzilmasiga oid qisqacha bayonlar mavjud. Shahname asarida Xorazmning qahramonlik an'analari va afsonaviy tarixiy voqealari tasvirlanadi. Xorazmshohlar davlatining o'ziga xos xususiyatlari, Xorazmning mintaqaviy ahamiyati va tarixiy voqealar haqida batafsil tasavvur hosil qilish mumkin.

**O'rta Osiyo tarixchilari.** Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday yozadi: "Xorazmliklar Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar. Bu Iskandardan 980 yil ilgari bo'lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmga podshohlik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga ko'chib, turk podshohlari (ustidan) hukmronligini yurgizgan edi. Bu voqea Xorazmga odam joylashishidan 92 yil keyin bo'ldi". Xitoyning Tan sulolasi davrida (milodiy VII-X asrlar) Xorazmda asosan turkiy qabilalar yashagan. Tanshu solnomasida shunday deyiladi: "Barcha turk elatlari ichida ho'kiz qo'shilgan arava faqat shu erda (Xorazm) uchraydi. Bu aravalarda savdogarlar turli viloyat va elatlarni aylanib, savdo qilib yuradilar." Bu o'rinda gap Xorazmning savdo-sotiq bilan kun kechiruvchi o'troq aholisi ustida ketyapti. Shu bilan birga Xorazm vohasiga yaqin cho'l va dashtlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador turkiy qabilalar yashagan. Abu Rayhon Beruniy afriq'iylar sulolasiga mansub xorazmshohlardan 22 tasining nomini keltirgan. Xorazm davlatining poytaxti dastlab Tuproqqal'a, 305 yildan keyin esa Kat shahri bo'lgan. Miloddan avvalgi 4-3 asrlarda Xorazm iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalib, yirik sug'orish kanallari, yangi shahar va qal'alar barpo etilgan. Hunarmandchilik, san'at, ichki va tashqi savdo keng rivoj topgan. Milodiy IV-VIII asrlarda Xorazm yangi yuksalishni boshdan kechirdi. Burgutqal'a, Uyqal'a, Qumbosganqal'a kabi inshootlar ana shu davrlarda qurilgan. Abu Rayhon Beruniy





o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday yozadi: "Xorazmliklar Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar. Bu Iskandardan 980 yil ilgari bo'lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmga podshohlik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga ko'chib, turk podshohlari (ustidan) hukmronligini yurgizgan edi. Bu voqea Xorazmga odam joylashishidan 92 yil keyin bo'ldi". Demak, 3 ming yil oldin ham Xorazmda turkiy qabilalar yashagan va davlat tizimi bo'lgan. Miloddan avvalgi ming yillik boshlariga aloqador "Amirobod madaniyati", quyi Amudaryo havzasidagi sun'iy sug'orish inshootlari tizimi (Gerodot qadimda Oks (Amu) daryosi bo'ylab 360 dan ziyod sun'iy sug'orish inshootlari barpo etilganligini yozadi) hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar-qal'alar - Qal'aliqir, Ko'zaliqir, Jonbosqal'a va boshqalar Xorazm vohasidagi qadimiy davlatchilik belgilaridir.

**Muhokama.** O'zbek davlatchiligining shakllanishiga asos solgan Xorazm davlati 2700 yillik tarixga ega. Afsuski, Xorazm davlatida hukmronlik qilgan sulolalar to'g'risida ma'lumotlar hozirgacha yetarli emas. Rivoyatlarga ko'ra, Xorazmning qadimiy siyosiy sulolasi Siyovushiyalar bo'lganligi zikr etiladi. "Avesto" da ta'kidlanishicha, Siyovarshon Kavousning o'g'li bo'lgan. Siyovarshon o'limidan so'ng uning nabirasi Kova Xusrav bobosining qotilidan o'ch olib, hokimiyatni egallab, Xorazmda siyovushiyalar sulolasiga asos soladi. qadimgi xorazm davlati haqida hali to'liq ma'lumotlar topilmagan.

**Xulosa va takliflar.** Xorazmning tarixiy roli juda katta. U Eronda, Afg'onistonda va Markaziy Osiyoda rivojlangan qadimiy sivilizatsiyalarning markazlaridan biri bo'lib, Xorazmshohlar davlati va keyinchalik Xorazm imperiyasi shu yerda tashkil topgan. Xorazmshohlar davlatining eng yirik hukmdori Muhammad Xorazmshoh, shuningdek, tarixiy manbalarda Abul-Fazl Xorazmiy, Al-Xorazmiy kabi mashhur olimlar va mutafakkirlar bilan bog'liq. Xorazmning geografik joylashuvi Amudaryo va boshqa suv yo'llarining yaqinligida bo'lganligi sababli, u tarixan savdo va madaniyatning o'zaro



almashinuvi nuqtasi bo'lgan. Bu mintaqada qadimgi inshootlar, masjidlar, madrasalar va ilmiy markazlar mavjud bo'lib, ular o'zining ilmiy va diniy merosi bilan tanilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "O'zbekiston davlatchilik tarixi sharq nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh nashriyoti.
2. Бекмуҳаммад "Хоразм ва хоразмликлар". 2022 nashriyoti toshkent-2001
3. A.S. Sagdullayev, B.J. Eshov, A.A. Odilov, A.B. Xoliqulov, A.M. Xidirov, O`.M. Mavlonov, O.P. Kobzeva o'zbekiston tarixi kitob ( toshkent "nif msh" 2024
4. A.S. Sagdullayev, va Kostetskiy "Tarix qadimgi dunyo".  
Yangi yo'l poligraf servis toshkent-2017
5. B.j.eshov,a.a.odilov o'zbekiston tarixi 2-kitobi toshkent "nif msh"-2024
6. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonov...o'zbekiston,...tarixi toshkent"iqtisod-moliya"-  
2016
7. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
8. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.
9. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.





10. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
11. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
12. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
13. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
14. Begaliyev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
15. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
16. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
17. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
18. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.